O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2022 - yil 2 - avgust 296-9-0-Q/22 Sirdaryo viloyati hokimligi

Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasiga Oqoltin tumani “Yangi hayot” mahalla fuqarolar yig‘ini “Farg‘ona” massivi hududidan suv tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish (ichimlik suv qudug‘i, suv minorasi, elektroshit binosini qurish va transformator o‘rnatish) uchun tuman hokimligi zaxira yer fondidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi “2022-2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-172-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarori asosida, O‘zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 5- va 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 10- va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasining 2022-yil 5-apreldagi 04/386-sonli xati qanoatlantirilsin va viloyatdagi tegishli tashkilot, korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasiga Oqoltin tumani “Yangi hayot” mahalla fuqarolar

yig‘ini “Farg‘ona” massivi hududining 794 q-konturidan ichimlik suvi tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish (ichimlik suv qudug‘i, suv minorasi, elektroshit binosini qurish va transformator o‘rnatish) uchun 15 m x 15 m o‘lchamda 0,0225 ga qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar yer uchastkasini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi (N.Xudoynazarov)ga:

Sirdaryo viloyati “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” DUKning, Sirdaryo viloyati Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasining, “Hududgaz Sirdaryo” gaz ta’minoti filiali va Sirdaryo viloyati IIB YHXBning xulosalaridagi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar hamda talab va tavsiyalarni bajarish, shuningdek, qurilishga ajratilgan yer uchastkalarini Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorini 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGASHKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Karimov, V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **G'.Mirzayev**